

Vazirlik va idoralar jamoatchilik kengashlarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash, davlat organi zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha davlat organi va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

birgalikda muloqot qilish, davlat organining nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun davlat organini fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'priklarni" rolini bajarish;

davlat boshqaruvi organlariga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan davlat organining faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

davlat organi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

davlat organi faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organining rasmiy veb-saytida jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilanib borilishini ta'minlash;

davlat organi faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organi faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

davlat organlari xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan 2024-yildagi faoliyatiga oid ma'lumotlar

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi Ekologiya vazirligining 2024-yil 14-martdagi 130-son buyrug'i bilan tashkil etilgan bo'lib, 21-nafar a'zoldan iborat bo'lib, ularni 20 foizini ayollar, 50 foizini nodavlat notijorat tashkiloti vakillari tashkil etadi.

2024-yil 25-mart kuni Ekologiya vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tgan.

Tadbirda Global yashil o'sish institutining (GGGI) O'zbekistondagi vakolatxonasi vakillari ham qatnashib Orol dengizi tanazzuli salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida Orolbo'yi mintaqasining yashil tiklanishini moliyalashtirishga yo'naltirilgan hamkorlikdagi loyihalari bilan tanishtirilgan.

Yig'ilishda Kengash raisi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Kamoliddin Jumaniyozov, Kengash raisi o'rinbosari Natalya Shivaldova, Kengash a'zosi Vadim Sokolovlar so'zga chiqib Jamoatchilik kengashi faoliyatini jonlantirish borasida o'zlarining takliflarini bildirilgan.

Tadbir yakunida Jamoatchilik kengashi a'zolari ekologik masalalarni atroflicha muhokama qilish maqsadida haftada kamida bir marta yig'ilib turishga kelishib olingan.

2024-yil mart oyida Buxoro viloyatida "Yashil makon" umummilliy loyihasining bahorgi mavsumi bo'lib o'tgan, ushbu tadbirda Buxoro viloyati boshqarmasi xodimlari, tegishli tashkilotlarning ma'sullari hamda jamoatchilik kengashi vakillari tomonidan Buxoro shahrining B.Naqshband va Gazli shoh ko'chasi kesishmasida 500 tup manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Bu kabi tadbirlar mamlakatimiz Xorazm, Samarqand, Andijon viloyatlari hamda boshqa hududlarida tashkil etilib, hududiy boshqarmalari xodimlari, tegishli tashkilotlarning ma'sullari hamda jamoatchilik kengashi vakillari faol ishtirok etgan.

Ekologiya vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari xalqaro ekologik sanalar munosabati bilan turli uchrashuv va tadbirlar tashkil etib, aholining xususan, yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. Jumladan, 15 aprel —Xalqaro ekologik bilimlar kuni munosabati bilan "Jayron" pitomnigiga o'quvchi-yoshlarning sayohati

uyushtirildi. Unda Kengash raisi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Kamoliddin Jumaniyozov ishtirok etib, o'quvchi-yoshlarga atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ma'lumotlar berib borilgan.

Ekologiya vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari daraxt kesilishi bilan bog'liq holatlarda ham faol ishtirok etdi. Jumladan, Ekologiya vazirligi tomonidan tuzilgan ishchi guruh va vazirlik Jamoatchilik kengashi a'zolari poytaxtimizning Uchtepa tumanida o'rab olingan hududda ham bo'lib, o'rganish ishlarini olib borilib, keng jamoatchilik vakillari ham qatnashgan o'rganishlar davomida Uchtepa tumanining Lutfiy va Katta Xirmontepa ko'chalari kesishmasida joylashgan ushbu hududni "GORODA STROY" MCHJ o'rab olganligi ma'lum bo'lgan. O'rganishlar davomida jamoatchilik talabi bilan hududni o'rab olgan to'siqlar olinib, daraxtlar qayta xatlovdan o'tkazilib, obodonlashtirish xodimlari jalb etilgan holda tozalik ishlari olib borilgan.

Joriy yilning 29 aprel kuni Ekologiya vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tgan.

Kun tartibidagi masalalardan kelib chiqib, yig'ilish Qibray tumanida joylashgan "AKSA Enerji Tashkent" mas'uliyatli cheklangan jamiyati korxonasida amaliy bir tarzda o'tkazildi. Jamoatchilik kengashi a'zolari va Ekologiya vazirligi huzuridagi "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" DM rahbariyati hamda ekspertlari ishtirok etgan yig'ilishda yirik qurilish obyektlari hamda ishlab chiqarish korxonalariga davlat ekologik ekspertiza xulosasini berish tartibi yuzasidan masalalar ko'rib chiqildi. Yig'ilishda ta'kidlanganidek, bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni tez sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda chet el investitsiyasini jalb etishga alohida e'tibor qaratilib, investorlarning O'zbekistonga kirishi va erkin faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan barcha omillarni bartaraf etish, ular uchun qulay sharoitlar yaratish bilan bog'liq tashabbuslar qo'llab-quvvatlanmoqda.

Yig'ilishda "AKSA Enerji Tashkent" korxonasi mutasaddilari tomonidan ushbu korxonaga haqida batafsil ma'lumot berildi. Korxonaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent viloyatida quvvati 240 MVt bo'lgan bug'-gaz elektr stansiyasi va quvvati 230 MVt bo'lgan gaz-porshenli elektr stansiyasini qurish» 2021 yil 4 martdagi PQ-5018-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, korxonaga tomonidan mo'ljallangan faoliyat uchun Vazirlik tomonidan davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi taqdim qilingan. Mazkur xulosada 8-banddan iborat atrof-muhitni muhofazasiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan. Jumladan, atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar bo'yicha laboratoriya tahlillarini amalga oshirish, chiqindilarni saqlash va joylashtirish talablariga rioya etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va oqova suvlarni ochiq suv havzalariga oqizmaslik, ishlab chiqarishni maxsus utilizatsiya qilish bo'yicha belgilangan tartibda chora-tadbirlarni kelishib borish

hamda atrof-muhitni ifloslantirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirish belgilab o'tilgan.

Yig'ilishda "Davlat ekologik ekspertiza markazi" DM ekspertlarining bu boradagi fikrlari tinglandi.

Yig'ilish davomida Jamoatchilik kengashi a'zolari hamda Vazirlik mutaxassislari bilan hamkorlikda atrof-muhitga bo'layotgan salbiy ta'sirning hamda qonunbuzilish holatlarining oldini olish maqsadida davlat ekologik ekspertizasi tizimini yana-da takomillashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda amaldagi milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda davlat ekologik ekspertiza xulosalarining bajarilishi bo'yicha doimiy nazorat qilish tizimini yaratish, ilg'or xorijiy tajriba asosida atrof-muhitga ta'sirni oldindan baholashning ikki bosqichli (skringing va skouping) shuningdek, texnik topshiriq asosida loyiha hujjatlarini ishlab chiqish zaruratini oldindan aniqlash tizimlarini joriy etish bo'yicha takliflar bildirildi va muhokama qilingan.

2024-yil 9-aprel kuni Ekologiya vazirligi, vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda "Yosh sayyohlik doirasi balandligi" bolalar loyihasi ko'magida "Amirsoy-kurort" tog'-chang'i kurortida tashkil etilgan. Unda Ekologiya vaziri Aziz Abduhakimov, yosh ekologik faollar, jamoatchilik vakillari, talabalar ishtirok etgan. Tadbir davomida yosh ekofaollar bugungi kundagi sohaga oid dolzarb muammolar borasida o'z fikr va mulohazalarini olib borishgan, shuningdek, hudud chiqindilardan tozalangan.

Bundan tashqari, piknik davomida yoshlar o'rtasida turli o'yinlar, musobaqalar tashkil etilgan. Tadbir so'ngida piknik ishtirokchilariga esdalik sovg'alari topshirgan. Piknik tadbiridan maqsad aholi, xususan, yoshlar o'rtasida ekologik madaniyatni oshirish, tabiat bilan uyg'unlikni yanada mustahkamlash bo'lgan.

22–23-aprel kunlari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida ("Green University) "Orol dengizi qurishining atrof-muhitga ta'siri" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tgan.

Tadbir "Green University" huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti va Toshkent gidrometeorologiya texnikumi tomonidan tashkil etildi. Unda Ekologiya vaziri o'rinbosari Jusipbek Kazbekov, "Green University" rektori Jasur Salixov, Atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori Baxtiyor Po'latov, O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti loyiha rahbari, Ekologiya vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari Zinoviy Novitskiy, Nataliya Shivaldova, Marina Plotsen, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi loyihalarini amalga oshirish agentligi rahbari Vadim Sokolov, xorijlik va mahalliy mutaxassislar ishtirok etgan.

Konferensiyada Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga keladigan muhim ekologik muammolarni hal qilish, xususan, hududda biologik xilma-xillikni saqlab qolish kabi muhim masalalarga e'tibor qaratildi. Xususan, Zinoviy Novitskiy Orol dengizining qurigan tubini qayta tiklashda o'rmon plantatsiyalarining ahamiyati katta ekanligini ta'kidlagan bo'lsa, Vadim Sokolov Janubiy Orolbo'yida suv ekotizimlarining o'zgarishini o'rganish masalalariga e'tibor qaratdi. Shu bilan birga, havoning ifloslanish manbalari va uning odamlarga ta'sirini baholash, Janubiy Orolbo'yida suv ekotizimlarining o'zgarishini o'rganish masalalari ham kun tartibidan o'rin olgan.

2024-yil 6-may kuni Toshkentda navbatdagi jamoatchilik eshituvi tashkil etilgan. Unda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va vazirlikning Toshkent shahar boshqarmasi mutasaddilari, Toshkent shahar hokimligi, Jamoatchilik kengashi a'zolari "Ko'prik qurilish" aksiyadorlik jamiyati mas'ullari, ekofaollar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan.

Unda Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani hududidagi Bobur ko'chasini Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti bilan bog'laydigan hamda "S.Tolipov" ko'chasiga chiqish va tushuvchi yo'l o'tkazgichlar qurilishi loyihasi doirasida daraxtlarni ko'chirish masalasi jamoatchilik bilan muhokama qilingan.

Tadbir Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani kichik halqa yo'lida joylashgan "Shox Med Center" klinikasi yaqinida bo'lib o'tgan.

Ma'lumot uchun, loyiha doirasida Toshkent shahri markaziy ko'chalarida avtomobillar harakatiga yanada qulaylik yaratish, katta tirbandliklarning oldini olish hamda ushbu ko'chalar atrofida yashil hududlar barpo etish maqsad qilingan.

2024-yil may oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi Qora'zak tumanidagi "Tebinbuloq" koni hududida tog'-metallurgiya majmuasini qurish loyihasini amalga oshirish bo'yicha jamoatchilik eshituvi tashkil etilgan.

Tadbir Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Atrof muhitga ta'sirni baholash loyihalarini jamoatchilik eshituvlaridan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom asosida o'tkazilgan.

Jamoatchilik muhokamasida 100 nafarga yaqin mahalliy aholi, Jamoatchilik kengashi mas'ul a'zolari, tuman hokimligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar vakillari, shuningdek, boshqa mutaxassis-ekspertlar hamda mustaqil jurnalistlar ishtirok etdilar.

Eshituv davomida qatnashchilarga loyihaning yaqin atrofda yashovchi aholi salomatligi hamda atrof-muhitga ehtimoliy ta'sirlari, ularning oldini olish chora-tadbirlari haqida batafsil ma'lumot berilgan, undan tashqari, loyihaning maqsadi va aholi qatlamlari uchun iqtisodiy jihatdan foydali tomonlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani Lokomotiv o'yingohi yonidagi xiyobonda "Butunjahon tozalik kuni" tadbiri o'tkazilgan.

Tadbir Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi, O'zbekiston Volontyorlari assotsiatsiyasi, Sanoat-qurilish bank va "Coca-Cola" kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan.

Tadbir doirasida "UzPlogging" eko-yugurish, "Clean Games" chiqindilardan tozalash o'yinlari bo'lib o'tgan. Aksiyada 100 dan ortiq ishtirokchi qatnashgan.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Ekologik nazorat inspeksiyasi hamda Jamoatcilik kengashi a'zolari tomonidan Toshkent shahri, Sergeli tumani hududidan oqib o'tuvchi Chirchiq daryosi bo'yida navbatdagi reydtadbirlari olib borildi.

Reydt davomida daryoning muhofaza mintaqasida 1 dona ekskavator va 2 dona yuk mashinasi yordamida qum-shag'al qazib olinib, o'rniga qurilish beton qoldiqlari joylashtirilayotganligi aniqlandi va transport vositalari voqea joyida to'xtatildi.

O'rganish davomida bu ishlar "GRM" MCHJga tegishli texnikalar yordamida hech qanday ruxsatnomasiz amalga oshirilayotganligi aniqlandi.

Ma'lum bo'lishicha, Sergeli tumani hokimining 2019-yil 26-avgustdagi farmoyishiga asosan Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 25-uyda joylashgan 2,26 gektar yer maydoni obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish maqsadida "GRM" MCHJga biriktirib berilgan. Farmoyishning 3-bandida mazkur hududda daraxt va gul ko'chatlarini ekish belgilanib, 4-bandida biriktirilgan hududda qurilish va boshqa chiqindilarni joylashtirish javobgarlikka sabab bo'lishi to'g'risida ogohlantirilgan.

Farmoyish talablariga amal qilinmaganligi natijasida O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 22-moddasi hamda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunning 41-moddasi talablari buzilgan. Tabiatga qum-shag'al qazib olinishi natijasida 21,4 milliard, chiqindilar noqonuniy joylashtirilishi natijasida esa 112,5 million so'mga yaqin zarar yetkazilgan.

Bundan tashqari, Bosh prokuratura xatiga asosan Toshkent shahri, Sergeli tumanidan oqib o'tuvchi Chirchiq daryosining boshqa bir qismida ham o'rganish ishlari olib borildi. Natijada daryoning muhofaza zonasi va qirg'oq bo'yida taxminan 4 gektarga yaqin maydonda qazish ishlari amalga oshirilganligi ma'lum bo'ldi. Tabiatga yetkazilgan zarar miqdori esa qariyb 62,3 milliard so'mni tashkil qiladi.